

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/30.12.2019.K.01.03 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

MAMATKULOV NEMATILLO NARZULLAYEVICH

**FENOLLARNING XLORASETIL HOSILALARINI SINTEZI, XOSSALARI
VA QO‘LLANILISHI**

02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**kimyo fanlari doktori (DSc) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent -2025

Doktorlik dissertsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской диссертации
Content of the abstract of doctoral dissertation

Mamatkulov Nematillo Narzullayevich Fenollarning xlorasetil hosilalarini sintezi, xossalari va qo‘llanilishi.....	3
Маматкулов Нематилло Нарзуллаевич Синтез, свойства и применение хлорацетилных производных фенолов.....	31
Mamatkulov Nematillo Narzullayevich Synthesis, properties and application of chloracetyl derivation of phenols.....	60
E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati Список опубликованных работ List of published works.....	64

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/30.12.2019.K.01.03 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

MAMATKULOV NEMATILLO NARZULLAYEVICH

**FENOLLARNING XLORASETIL HOSILALARINI SINTEZI, XOSSALARI
VA QO‘LLANILISHI**

02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**kimyo fanlari doktori (DSc) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent -2025

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi
oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2024.4.DSc/K208 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume) ilmiy kengash veb-sahifasida www.ik.kimyo.nuuz.uz va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.Ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Abdushukurov Anvar Kabirovich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ziyadullayev Odiljon Egamberdiyevich
kimyo fanlari doktori, professor
Raxmanberdiyev G'affor
kimyo fanlari doktori, professor
Beknazarov Hasan Soibnazarovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot

Toshkent farmatsevtika instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universitetida huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03/30.12.2019.K.01.03 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025 yil "19" mart soat 15^o dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-07-88, faks: (+99871) 246-02-24; e-mail: ilmiy_kengash@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (27 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-07-88; faks: (+99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "3" mart kuni tarqatildi.
(2025 yil "1" mart dagi 9 raqamli restr bayonnomasi).



Z.A.Smanova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi
bir martalik ilmiy kengash
raisi, k.f.d. professor

N.X. Qutlumurotova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi
bir martalik ilmiy kengash
ilmiy kotibi, k.f.d. professor

T.S. Xoliqov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir
martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, k.f.d. professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda jahonda sanoatning rivojlanishi bilan fenollar asosida sintez qilingan birikmalar qishloq xo‘jaligida fungitsid, bakteritsid, stimulatorlar, farmatsevtika sohasida dori-darmonlar va neft-gaz sanoatida ingibitorlar sifatida keng qo‘llanilmoqda. Oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi bilan g‘alla, meva-sabzavotlar yetishtirishning samaradorligini oshirishda yashil kimyoga rioya qilgan holda o‘simliklar va boshqa kasalliklarda qo‘llaniladigan preparatlar sintezlarini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda xloratsetilxlorid bilan fenollar, aromatik uglevodorodlar va geterotsiklik birikmalarni xloratsetillash reaksiyalari orqali maqsadli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, assimetrik sintezlar uchun reagentlar, substratlar va katalizatorlar olish, immunostimulyator, diabet va saratonga qarshi faolikka ega bo‘lgan preparatlar yaratish, turli patogen mikroorganizmlarga qarshi bakteritsid xossalari birikmalarni sintez qilishda yuqori samara beradigan usullarini qo‘llash muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Respublikamizda fenol va uning hosilalari asosida qishloq xo‘jaligida hamda tibbiyotda qo‘llash uchun samarali preparatlarni sintez qilish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, bu, o‘z navbatida, raqobatbardosh preparatlarni tabiiy xom ashyolar hamda sintetik organik kimyo mahsulotlari asosida yaratish borasida muhim yutuqlarga erishilishi qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirishga sabab bo‘lmoqda. So‘nggi yillarda amaliyotda noempirik hisoblashlar uchun zamonaviy dasturlarini qo‘llab yuqori darajadagi aniqlikka erishish mumkin. Sintez qilingan moddalar molekulyar modellashtirishning turli-tuman usullarini o‘zida mujassamlashtirgan molekulyar sistemalarning tuzilishi va xossalarini hisoblashga qaratilgan kompyuter dasturlarida amalga oshiriladi. Kvant mexikasining fundamental qonunlariga asoslangan holda molekulyar sistemaning gaz va kompleks hamda qo‘zg‘algan holatlaridagi energiyasi, molekulyar tuzilishi va tebranish chastotalari hamda molekulaning bir qator xossalari to‘g‘risida nazariy ma‘lumotlar asosida amaliy ma‘lumotlarga erishish, sanoat texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”, 2018-yil 25-oktyabrdagi PQ-3983-son “O‘zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini rivojlantirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”¹, 2018-yil 17-yanvardagi PQ-3479-son “Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarining talab yuqori bo‘lgan mahsulot va xomashyo turlari bilan barqaror ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. Kimyo fanlari, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiya ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Aromatik uglevodorodlarni xloratsetilxlorid bilan Fridel-Krafts bo'yicha atsillash reaksiyalarini tadqiq qilishga qaratilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va universitetlarida Universidad de Chile (Chili), Universidad de Valencia (Ispaniya), National Chemical Laboratory (Puna), Ningxia Medical University (Xitoy), Key Laboratory of Hui Ethnic Medicine Modernization (Xitoy), Madurai Kamaraj University (Hindiston) tadqiq qilingan.

Fenollarni xloratsetillash reaksiyalari ham jahon miqyosida o'rganilmoqda. Xloratsetillash reaksiyalari olib borilganda C-atsillash va O-atsillash reaksiyalari hosil bo'lishi regiosektivlik xossalari xorij olimlari Hokkaido University (Yaponiya), Kashan University (Eron), Jazan University (Saudiya Arabistoni), Madurai Kamaraj University (Hindiston) tomonidan o'rganilgan. Turli xil fenollarni va aromatik amino birikmalarni gamma- Fe_2O_3 hamda boshqa nanokatalizatorlardan foydalanib xloratsetil birikmalarini sintez qilish va amaliyotda qo'llash uchun jahonda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida salmoqli, xususan, quyidagi ilmiy tadqiqot natijasida yuqori unum bilan xloratsetil mahsulotlar olish Institute of Chemical Technology (Hindiston), Acharya Nagarjuna University (Hindiston), University of Tokyo (Yaponiya) Changji University (Xitoy), Nanjing University (Xitoy), Sistan and Baluchestan University (Eron) usullari yaratilgan. Aminofenollarning atsillash reaksiya mahsulotlari tibbiyotda shizofreniya, aminofenolni xloratsetillash mahsulotlari esa sil kasalliklariga qarshi vositalar bo'yicha jahon olimlari tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan va amaliyotga Universidad Catolica del Norte (Xitoy), Universidad Austral de Chile (Xitoy), Babasaheb Ambedkar Marathwada University (Hindiston), Madurai Kamaraj University (Pokiston), VIT University (Kanada) qo'llanilgan. Aromatik uglevodorodlar va fenollarning ultratovush to'lqini yordamida Fridel-Krafts reaksiyasi bo'yicha turli xil katalizatorlar va erituvchilar yordamida atsillash reaksiyalarini amaliyotda qo'llash uchun jahonda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida salmoqli ishlar amalga oshirilgan, xususan, quyidagi ilmiy tadqiqot natijasida mahsulotlar olish Department of Chemistry, Shri Shivaji College (Hindiston), University of Jammu (Hindiston), Sistan and Baluchestan University (Eron) usullarini ishlab chiqishgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Fenollarini xloratsetillash reaksiyalari asosida sintez qilingan moddalar yuqori biologik faollikka bo'lgan birikmalardan farmatsevtikada antibakterial, analgetik va patogen mikroorganizmlarga qarshi bakterisid xossali preparatlar hamda tibbiyotda immunostimulyatorlar, diabet, saratonga qarshi preparatlar sintezi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari jadal rivojlanmoqda.

Xorijda ushbu yo‘nalishda Shahid Chamran University (Eron), Payame Noor University, (Eron), Novartis Institutes for BioMedical Research (Buyuk Britaniya), University of Alcala (Ispaniya), Université Tunis (Tunis), National Institute of Pharmaceutical Education and Research (Hindiston) universitetlari olimlari tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Xorij olimlari Olah G.A., Murakami Y., Tani M., Ariyasu T., Nishiyama C., Gujar M.K. va boshqalar tomonidan aromatik birikmalarni xloratsetillash CS_2 erituvchisida, ekvimolekulyar miqdordagi $AlCl_3$ ishtirokida olib borilgan. Mualliflar tomonidan asosiy modda ajratib olingan va reaksiya unumi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilmagan. Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda fenil o-, m- va p-tolilxloratsetatlarning $AlCl_3$ ishtirokida qayta guruhlanish reaksiyalari va mos almashingan fenasilxloridlar hosil bo‘lish haqidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

Aromatik birikmalarni atsillash reaksiyalari O‘zbekiston Milliy universiteti olimlari tomonidan ham ko‘p yillardan beri o‘rganilib kelinadi. Bu borada I.P.Sukervanikning shogirdlari N.G.Sidorova, H.Y.Yo‘ldoshev, A.K.Abdushukurovlarning ilmiy ishlari o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ushbu olimlar tomonidan fenollarni turli atsillovchi agentlar bilan har xil katalizatorlar ishtirokida atsillash reaksiyalari ancha keng o‘rganilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan Oliy ta‘lim muassasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Ushbu dissertatsiya ishi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Organik kimyo kafedrasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishni muvofiqlantirish qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan OT-F-3-116 “Fenollarni xloratsetillash reaksiyalari bo‘yicha fundamental tadqiqotlar va O- va C-asilmahsulotlar olishning regiosektiv usulini ishlab chiqish” (2007-2010-y.), “Turli aromatik birikmalarning reaksiyaga kirishish qobiliyatini o‘rganish va ketonlarning sintezi” mavzusi bo‘yicha (Reg.№ 01940002918), Davlat, fan va texnologiyalar markazining “Biologik faollikni aniqlash uchun xlorketonlar va ularga yaqin birikmalarni sintez qilish” (0.74.05; N4, Reg. № 81053538), O‘zbekiston Respublikasi ilmiy texnik dasturining “Yangi organik pestisidlar va o‘simlik o‘shini boshqaruvchi moddalarni sintez qilish hamda ularning xossalarini tadqiq etish” (Reg. № P-17.35) mavzulari bo‘yicha bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi. Fenol va izomer krezollarni katalitik miqdordagi L‘yus kislotalari hamda nano katalizatorlar ishtirokida xloratsetillash reaksiyasi mahsulotlarining modifikatsiyasi, qo‘llanilishi va olish texnologiyasini ishlab chiqarishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

fenol, izomer krezollarning xloratsetillash reaksiyasining mahsulot unumiga va tarkibiga ta‘sir qiluvchi turli omillarni aniqlash;

fenol va izomer krezollarni katalitik miqdordagi katalizatorlar ishtirokida xloratsetillash reaksiyalari unumiga nisbatan katalizatorlarning faollik qatorini keltirib chiqarish;

fenol va izomer krezollarni xloratsetillash reaksiyasini nano $\text{FeCl}_3/\text{SiO}_2\text{-TiO}_2$ katalizatori bilan olib borish hamda uning mahsulot unumiga va tarkibiga taʼsirini aniqlash;

fenil- va izomer tolilxlorasetatlarni sintez qilishning qulay hamda sodda usullarini ishlab chiqish;

fenol va izomer krezollarni O-xloratsetillash reaksiyalarining olish usulini ishlab chiqish hamda O-xloratsetillash reaksiyalari mexanizmini yaratish;

fenil- va izomer tolilxloratsetatlarni nukleofil almashinish reaksiyalarini amalga oshirish;

fenil- va izomer tolilxloratsetatlar asosida sintez qilingan moddalar orasidan yuqori faollikka ega boʻlgan moddalarni qishloq xoʻjaligida oʻsimliklarning kasalliklariga qarshi qoʻllash;

fenil- va izomer tolilxloratsetatlar asosida sintez qilingan moddalar orasidan ingibitor xossaligi moddalarni aniqlash hamda neft-gaz sohasida qoʻllash.

Tadqiqot obyekti. Fenol, o-krezol, m-krezol, p-krezollar tanlandi. Xloratsetillash reaksiyalarini olib borish uchun asillovchi agent sifatida xloratsetilxlorid, katalizator sifatida FeCl_3 , $\text{FeCl}_3 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$, ZnCl_2 , $\text{Fe}_2(\text{SO}_4)_3$ va TAA, FeCl_3 nanokatalizator $\text{FeCl}_3/\text{SiO}_2\text{-TiO}_2$ tanlandi. Nukleofil almashinish reaksiyalarini olib borish uchun fenil-, izomer tolilxloratsetatlar, nukleofil agent sifatida fenollar, krezollar, etil spirt va benzoy kislota tanlandi.

Tadqiqotning predmeti xlorasetillash reaksiyalari uchun fenol, krezollar, xloratsetilxlorid, katalizatorlar va nukleofil almashinish reaksiyalari uchun fenil-, izomer tolilxloratsetatlardagi fenollar, etil spirt, benzoy kislota, hamda fenilfenoksiatsetat olish texnologiyasi, mikroorganizmlar, ingibitorlardan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotlar jarayonida organik sintez, xromatografiya (YUQX, QX, KX), spektroskopiya (IQ-, ^1H - va ^{13}C YaMR), xromato-mass-spektrometriya, kvant-kimyoviy hisoblashlar, matematik modellashtirish va biologik tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ilk bor xloratsetilxlorid bilan fenol va krezollarni xloratsetillash reaksiyalari katalitik miqdordagi L'yuis kislotalari ishtirokida sistematik tarzda amalga oshirilgan. Xloratsetillash reaksiyalarining yoʻnalishi va unumning turli omillarga bogʻliqligi aniqlangan.

Ilk bor xloratsetilxlorid bilan fenol va izomer krezollarni xloratsetillash reaksiyalarida nano $\text{FeCl}_3/\text{SiO}_2\text{-TiO}_2$ katalizator qoʻllanilgan. Reaksiya yoʻnalishi, mahsulot tarkibi hamda unumi turli omillarga bogʻliqligi dalillangan.

Fenol va izomer krezollarni xloratsetillash reaksiyasining regiosektiv borish sharoitlari aniqlangan. Ushbu moddalarni katalitik miqdordagi Lyuis kislotalari ishtirokida reaksiyasida O- va C-atsillash borish sharoitlari borish sharoitlari topilgan.

O- atsilmahsulot olish usullari ishlab chiqilgan va O- xloratsetillash reaksiyasi uchun mexanizmi ishlab chiqilgan.

Fenil- va izomer tolilxloratsetatlarning fenollar, krezollar, etil spirt, benzoy kislota bilan nukleofil almashinish reaksiyalari olib borish sharoitlari topilgan va

yangi ketoefirlar olishning usullari yaratilgan. Nukleofil almashinish reaksiya mexanizmi tavsiya qilingan.

Yaratilgan usulbar asosida sintez qilingan yangi moddalarni biologik faollikka va ingibitorlik xossalarga ega ekanligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

fenol va izomer krezollarni katalitik miqdordagi katalizatorlar ishtirokida xloratsetillash reaksiyasi orqali O- hamda C-atsetil mahsulotini sintez qilish usullari ishlab chiqildi;

fenol va izomer krezollarni xloratsetillash reaksiyasiga katalitik miqdorda FeCl_3 , $\text{FeCl}_3 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$, ZnCl_2 , $\text{Fe}_2(\text{SO}_4)_3$ va TAA, FeCl_3 katalizatorlari qo'llab 95 % unum bilan $\text{FeCl}_3/\text{SiO}_2\text{-TiO}_2$ bilan esa 96 % gacha mahsulot sintez qilish usuli yaratildi;

fenil- va izomer tolilxloratsetatlar asosida sintez qilingan moddalar orasidan o'simliklarni himoya qiluvchi fungitsid hamda bakteritsid faolliqi aniqlangan;

fenilfenoksiatsetatning laboratoriya va sanoat usulida sintez qilish reglamenti ishlab chiqilgan;

fenilfenoksiatsetatni sanoat miqyosida ishlab chiqarish texnologik sxemasi yaratildi va amaliyotga joriy qilingan;

fenil- va izomer tolilxloratsetatlar asosida sintez qilingan moddalar orasidan sinov asosida kimyoviy koroziyani o-tolilfenoksiatsetat, p-tolilbenzoioksiatsetat va biokoroziyani oldini oluvchi o-tolil-4-metoksifenoksiatsetatlar, fenil-4-metoksifenoksiatsetat, m-tolil-4-metilfenoksiatsetat, fenil-2-metilfenoksiatsetatlar ingibitor xossali moddalar topildi hamda neft-gaz sanoatida qo'llashga tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Zamonaviy tadqiqotlar jarayonida organik sintez, xromatografiya (YUQX, QX), spektroskopiya (IQ-, ^1H - va ^{13}C YaMR), xromato-mass-spektroskopiya, kvant-kimyoviy hisoblashlar (Nartree-Fock (HF) va DFT/B3LYP-3-21G) biologik tadqiqot usullaridan olingan natijalar asosida asoslandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati

Fenol va izomer krezollarni katalitik miqdordagi va nano $\text{FeCl}_3/\text{SiO}_2\text{-TiO}_2$ katalizatorlar ishtirokida xloratsetillash, fenol, izomer krezollarni erituvchilar ishtirokida fenil-, izomer tolilxloratsetatlar sintez qilish hamda fenil-, izomer tolilxloratsetatlar asosda fenollar, etil spirti va benzoy kislotasi bilan nukleofil almashinish reaksiyasi natijasida yangi modda sintez qilinganligi, ularning tuzilishini IQ-, ^1H , ^{13}C YaMR-spektroskopiya va xromato-mass spektrometriya usullari yordamida aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ilk bor sintez qilingan fenil-, izomer tolilxloratsetatlar asosida nukleofil almashinish reaksiyala orqaili 32 ta yangi organik modda sintez qilinganligi, ularning neft-gaz sanoati qurilmalari kimyoviy, biokoroziyaga qarshi ingibitor sifatida qo'llanilganligi, "Fenilfenoksiatsetat"ning texnologik reglamenti ishlab chiqib, Navoiy "Elektrokimyo zavodi" AJ rahbariyati tomonidan tasdiqlanganligi va amaliyotda

g'ozaning ildiz chirish hamda gommoz kasalliklariga qarshi qo'llashga tavsiya etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Fenollarning xlorasetil hosilalarini sintezi, xossalari va qo'llanilishini tadqiq qilish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Fenollarning xlorasetillash reaksiyalari va fenilfenoksiasetatni laboratoriya sharoitida sintez qilish ishlab chiqildi va o'quv jarayonida qo'llanildi (Analitik va organik kimyo nomli darslik nashr ruxsatnomasi (O'zMU kengashi 2024-yil 31-oktyabrdagi №3 sonli qarori, ro'yxatga olish raqami №477). Natijada fenollarni xloratsetillash reaksiyalari va ularning mexanizmlari to'g'risidagi ma'lumotlardan ma'ruza hamda laboratoriya mashg'ulotlarida foydalanilmoqda.

Sintez qilingan fenilfenoksiatsetat o'simliklarni gommoz va ildiz chirish kasalliklariga qarshi amaliyotga joriy qilingan ("Elektrokimyozavod" QK-AJ ning 2023-yil 13-oktyabrdagi №14-215 son ma'lumotnomasi). Natijada o'simliklarni gommoz va ildiz chirish kasalliklari preparatlar ishlab chiqarishda toksik moddalar hosil bo'lmasligi va texnologik jarayonning soddalashtirish imkoniyati yaratilgan.

Fenil- va izomer tolilxlorasetat asosida sintez qilingan moddalarni "Muborak gazni qayta qayta ishlash zavodi" da metallar biokorroziasiga qarshi ingibitor sifatida amaliyotga joriy qilingan ("Muborak gazni qayta qayta ishlash zavodi" ning 2024 yil 06 sentyabrdagi №845-G'K-09 son ma'lumotnomasi). Natijada metallar biokorroziasiga qarshi qo'llaniladigan import ingibitorini mahalliyashtirish imkonini beradi.

Fenil- va izomer tolilxlorasetat asosida sintez qilingan moddalarni "GISSARNEFTGAZ" O'zbekiston Shveysariya qoshma korxonasi tomonidan metallar kimyoviy koroziyaga qarshi ingibitor sifatida amaliyotga joriy qilingan ("GISSARNEFTGAZ" O'zbekiston Shveysariya qoshma korxonasining 2024-yil 21-oktyabrdagi №683-01-GNG-13 son ma'lumotnomasi) Natijada metallar kimyoviy koroziyasiga qarshi qo'llaniladigan import ingibitorini mahalliyashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqotning natijalari 15 ta, jumladan, 4 xalqaro va 11 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan hamda muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 30 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta patent olingan. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiyasi komissiyasining fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta respublika, 9 ta maqola xalqaro jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 202 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, ularning ishonchliligi asoslangan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, amaliyotga natijalarning joriy qilish, nashr qilingan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Fenollar va ularning efirlarini xloratsetillash reaksiyalari”** deb nomlangan birinchi bobida mavzuga oid adabiyotlar sharhi keltirilgan bo‘lib, unda aromatik uglevodorodlar, fenollar va ularning efirlarini alifatik hamda aromatik kislota galogenangidridlari va angidridlari bilan atsillash reaksiyalari chet el hamda o‘zbek olimlari tomonidan o‘rganilgan. Fenol va krezollarni ekvimolekulyar miqdordagi AlCl_3 ishtirokida xloratsetillash reaksiyalari o‘rganilgan. Hosil bo‘lgan mahsulot unumi ham yuqori bo‘lmagan. Fenol va krezollarni xlorasetilxlorid bilan katalitik miqdordagi katalizatorlar hamda nanokatalizatorlar ishtirokida reaksiyalar o‘rganilmagan.

Ushbu bobning **“Fenatsilgalogenbirikmalarda boradigan nukleofil almashinish reaksiyalari”** deb nomlangan paragrafida fenol, ikki va uch atomli fenollar, aminofenollar asosida sintez qilingan galogen hosilalarini har xil sharoitlarda nukleofil almashinish reaksiyalari olib borilgan hamda biologik va boshqa xossalari tekshirilgan. Bundan tashqari benzoy kislotaning galogen hosilalarining almashinish reaksiyalari fenollar, aminofenolar, aminbenzotiazol ta‘sirida geterohalqali birikmalar sintez qilish usullari ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning **“Fenollarning xlorasetil hosilalarining sintezi”** deb nomlangan ikkinchi bobida fenol va izomer krezollarni katalitik miqdordagi rux xlorid, temirning xlor va sulfat tuzlari hamda $\text{FeCl}_3/\text{SiO}_2\text{-TiO}_2$ nanokatalizatori ishtirokida xloratsetillash reaksiyalari keltirilgan, ushbu bobda fenil-, o-, m-, p-tolilxloratsetatlar va ular asosidagi sintezlar berilgan.

Fenol, o-, m- va p-krezollarni katalitik miqdordagi FeCl_3 hamda $\text{FeCl}_3/\text{SiO}_2\text{-TiO}_2$ nanokatalizatori ishtirokidagi xloratsetillash reaksiyalari: Fenolni katalitik miqdordagi FeCl_3 va $\text{FeCl}_3/\text{SiO}_2\text{-TiO}_2$ nanokatalizatori ishtirokidagi xloratsetillash reaksiyasida fenilxloratsetat (FXA) (2) hamda 4-gidroksifenatsilxlorid (4-GFAX) (3)lar hosil bo‘ladi (1-jadval).



Fenolni xloratsetillash reaksiyalari reagentlar fenol: XAX 1:1 va 3:1 nisbatda olib borildi. Reaksiya natijalariga ko‘ra katalitik miqdordagi FeCl_3 ishtirokidagi reaksiyaga qaraganda $\text{FeCl}_3/\text{SiO}_2\text{-TiO}_2$ bilan o‘tkazilgan reaksiya qisqa vaqt ichida boradi.


1-Jadval

Fenolni katalitik miqdordagi FeCl₃ va FeCl₃/SiO₂-TiO₂ nanokatalizatori ishtirokidagi xloratsetillash reaksiya natijalari


№	Reagentlar nisbati. fenol: XAX : kat.	Reaksiya vaqti, soat	Reaksiya temp. °C	Reaksiya unumi, %	Xromato-mass-spektri bo'yicha mahsulot tarkibi, %	
					FXA	4-GFAX
FeCl₃						
1	1:1:2.5·10 ⁻³	3	118-120	80	15	85
2	3:1:1.2·10 ⁻³	2	118-150	74	21	79
FeCl₃/SiO₂-TiO₂						
3	1:1:1.5·10 ⁻³	0.20	90-100	92	6	94
4	3:1:1.5·10 ⁻³	0.30	90-100	81	12	88

Bundan tashqari reaksiya harorati pasayib 90-100 °C ni tashkil etadi. Mahsulot unumi yuqori bo'lishi va mahsulot tarkibida ham o'zgarish kuzatilib gidroksil guruhga nisbatan para izomer miqdori ko'p hosil bo'lishi aniqlandi. Reaksiya natijasida hosil bo'lgan izomer tarkib xromato-mass-spektrida analiz qilindi va ularning molekulyar massasi asoslandi.

Fenilxloratsetatning molekulyar ion cho'qqisi 170.0 ga teng bo'lib va massasi quyidagicha bo'lgan m/z=170.0, m/z=94.0, m/z=77.1, m/z=51.0 bo'lakli ionlarning hosil bo'lishi aniqlandi.



o-Krezolni xloratsetillash reaksiyalari katalitik miqdordagi FeCl₃ va FeCl₃/SiO₂-TiO₂ nanokatalizatori ishtirokidagi olib borilib, xromato-mass-spektrida mahsulot analiz qilindi. Reaksiya natijasida hosil bo'lgan moddalarning foizi molekulyar



o-Krezolni xloratsetillash reaksiyasida O-xloratsetillash reaksiyasi borib o-tolilxloratsetat(5) va C-xloratsetillash reaksiyasi borib 2-gidroksi-3-metilfenatsilxlorid(6) hamda 4-gidroksi-3-metilfenatsilxloridlar(6) aralashmasi hosil bo'ladi.

Reaksiya natijalaridan ko'rinadiki, FeCl₃/SiO₂-TiO₂ nanokatalizatori ishtirokida o-krezolni xloratsetilxlorid bilan reaksiyasida katalitik miqdordagi FeCl₃ katalizatoriga qaraganda reaksiya unumining yuqori bo'lishi, reaksiya davomiyligi


kamayishi va pastroq temperaturada borishi aniqlandi. Mahsulot tarkibidagi izomerlar solishtirilganda gidroksil guruhga nisbatan o-izomerning (II) miqdori ko'payishi kuzatildi (2-jadval).

2-Jadval

o-Krezolni xlorasetilxlorid bilan reaksiyasi katalitik miqdordagi FeCl₃ va FeCl₃/SiO₂-TiO₂ nanokatalizatori ishtirokidagi reaksiya natijalari


№	Reagentlar nisbati o-krezol: XAX : kat.	Reak. vaqti, soat	Reak. temp. °C	Reak. unumi, %	Xromato-mass-spektri bo'yicha mahsulot tarkibi, %		
					o-TXA	2-G-3-MFX	4-G-3-MFX
FeCl ₃							
1	1:1:1.5·10 ⁻³	2	130-140	81	53	14	33
2	2:1:1.5·10 ⁻³	2	140-150	77	70	18	12
FeCl ₃ /SiO ₂ -TiO ₂							
3	1:1:1.5·10 ⁻³	0.30	100-110	90	10	79	11
4	2:1:1.5·10 ⁻³	0.30	100-110	84	16	76	8

o-Tolilxloratsetatning xromato-mass-spektrometriga kiritilgandan keyin, tanlangan sharoitda m/z=184 bo'lgan o-tolilxloratsetatning molekulyar ion hosil bo'ldi. o-Tolilxloratsetatning molekulyar ionidan bir yo'nalishda atsetilxlorid radikalining ajralib chiqishidan m/z=108.1 kation radikali ajralishi namoyon bo'ldi. Jarayon davom etib, hosil bo'lgan kation radikalidan kislorod radikali chiqib ketadi va metil benzol m/z=92 kationiga aylanadi.



Keyingi bosqichda metil guruhining kationdan ajralishi natijasida m/z =77 ioni hosil bo'lish jarayoni namoyon bo'ldi. Oxirgi bosqichda atsetilen molekulasi chiqishi bilan jarayon yakunlanadi.

m-Krezolni xloratsetillash reaksiyalari katalitik miqdordagi FeCl₃ va FeCl₃/SiO₂-TiO₂ nanokatalizatori ishtirokida reaksiya quyidagicha boradi.



m-Krezolni xloratsetilxlorid bilan reaksiyasi natijasida m-tolilxloratsetat (I), 2-gidroksi-4-metilfenatsilxlorid va 2-gidroksi-4-metilfenatsilxloridlar hosil bo'lishi aniqlandi.

Tajriba natijalardan m-krezolni xloratsetilxlorid bilan reaksiyasida FeCl₃/SiO₂-TiO₂ nanokatalizatori ishtirokida reaksiya davomiyligining qisqarishi, reaksiya temperaturasining pasayishi va unumning oshishi ko'rinib turibdi (3-jadval).


3-Jadval

m-Krezolni xloratsetilxlorid bilan reaksiyasi katalitik miqdordagi FeCl₃ va FeCl₃/SiO₂-TiO₂ nanokatalizatori ishtirokidagi reaksiya natijalari

№	Reagentlar nisbati m-krezol: XAX:kat	Reak. vaqti, soat	Reak. temp. °C	Reak. unumi, %	Xromato-mass-spektri bo'yicha mahsulot tarkibi,%		
					m-TXA	2-G-4-MFX	4-G-2-MFX
FeCl ₃							
1	1:1:1.5·10 ⁻³	1	120-130	95	5	35	59
2	3:1:6.1·10 ⁻³	0.5	120-130	88	10	67	23
FeCl ₃ /SiO ₂ -TiO ₂							
3	1:1:1.5·10 ⁻³	0.20	100-110	96	3	72	25
4	3:1:6.1·10 ⁻³	0.20	100-110	90	8	82	10

Bu esa, katalitik miqdordagi FeCl₃ ga nisbatan FeCl₃/SiO₂-TiO₂ ning faol ekanligini ko'rsatdi. Izomer tarkibning analizidan FeCl₃/SiO₂-TiO₂ ning gidroksil guruhga nisbatan o-izomer (II) ga selektiv bo'lganligi uchun uning miqdori ko'proq bo'ladi.

p-Krezolni FeCl₃ va FeCl₃/SiO₂-TiO₂ nanokatalizatori ishtirokida olib borilgan xloratsetillash reaksiyasi mahsuloti xromato-mass-spektri analiz qilinganida 2 ta cho'qqi borligi aniqlandi. Reaksiya natijasida p-tolilxloratsetat (14) va 2-gidroksi-5-metilfenatsilxlorid(15) hosil bo'ldi.



p-Krezolni FeCl₃ va FeCl₃/SiO₂-TiO₂ nanokatalizatorlari ishtirokida olib borilgan xloratsetillash reaksiyalarida ham fenol, o-, m-krezollarni xloratsetillash reaksiyalaridagi kabi qonuniyatlar kuzatildi.


p-Tolilxloratsetatning molekulyar ion cho'qqisi 184.0 ga teng bo'ldi. Uning xromato-mass spektrida massasi m/z=184.0, m/z=108.1 m/z=92.0, m/z=77.1, m/z=51.0 bo'lgan bo'lakli ionlarning hosil bo'lishi aniqlandi (4-jadval).

4-Jadval

p-Krezolni xloratsetilxlorid bilan reaksiyasi katalitik miqdordagi FeCl₃ va FeCl₃/SiO₂-TiO₂ nanokatalizatori ishtirokidagi reaksiya natijalari


№	Reagentlar nisbati p-krezol: XAX:kat.	Reak. vaqti, soat	Reaksiya temp °C	Reak. unumi, %	Xromato-mass-spektri bo'yicha mahsulot tarkibi, %	
					p-TXA	2-G-5-MFX
FeCl ₃						
1	1:1:3·10 ⁻³	1	160-170	90	82	18
2	2:1:3·10 ⁻³	0.5	160-170	86	78	22
FeCl ₃ /SiO ₂ -TiO ₂						
3	1:1:3·10 ⁻³	0.40	120-130	93	41	58
4	2:1:3·10 ⁻³	0.40	130-130	91	36	64

Fenil-, o-, m-p-tolilxlorasetatlar sintez qilish usuli va mexanizmi: Fenil-, o-, m-p-tolilxlorasetatlar sintez qilish va ular asosida nukleofil almashinish reaksiyalarini amalga oshirish maqsadida fenol o-, m-, p-krezollarning xlorasetatlash reaksiyalari turli xil sharoitlarda olib borildi. Bu reaksiyalarni amalga oshirishning eng qulay usuli izlab topildi.




X=H (2); o- CH₃ (5); m- CH₃ (10); p- CH₃ (14)

Reaksiya absolyut benzol eritmasida olib borildi va fenilxlorasetat, o-, m- va p-tolilxlorasetatlar toza holda ajratib olindi. O-xlorasetillash reaksiyasining mexanizmi ishlab chiqildi. Uni quyidagicha tasvirlash mumkin:




Fenol va izomer krezollarni xlorasetilxloridning reaksiyasi vaqtida xlorasetilxlorid molekulasida elektron zichlik elektromanfiy kislorod tomon siljigan bo‘ladi hamda kislorod qisman manfiy zaryadga ega bo‘ladi. Elektromanfiy xlor va kislorod atomlarining ta’siri natijasida uglerod atomi esa qisman musbat zaryadga ega bo‘ladi hamda fenol va izomer krezollarning molekulasidagi gidroksil guruhning juft elektronlari bilan ta’sirlashib, I kompleksni hosil qiladi. Reaksiya davomida kislorod va uglerod o‘rtasida valent bog‘i hosil bo‘lib, II kompleks hosil bo‘ladi va undan vodorod xlorid bilan reaksiya mahsuloti ajralib chiqadi.

Fenil- va izomer tolilxlorasetatlar asosida sintezlar: Begona o‘tlar, o‘simlik kasalliklari va hasharotlarni yo‘qotishda ishlatiladigan yangi, arzon, ishlatishga qulay birikmalarni izlash va ularni qishloq xo‘jaligida qo‘llash kimyogarlarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu dolzarb vazifani hal qilish uchun biz yangi moddalarni sintez qilish va ularning biologik xossalarini o‘rganish maqsadida fenil-, o-, m- va p-tolilxlorasetatlarni etil spirt, fenollar va benzoy kislota bilan nukleofil almashinish reaksiyalari olib borildi Erituvchi sifatida etil spirt ishlatildi. Reaksiya quyidagicha bordi:



X=H (**17**); o- CH₃ (**18**); m- CH₃ (**19**); p- CH₃ (**20**)

Fenil-, o-, m- va p-tolilxlorasetat bilan fenol, p-metoksifenol, o-, m-, p-krezollarni nukleofil almashinish reaksiyasini olib borildi. Reaksiya ikki bosqichda o'tkazildi. Birinchi bosqichda nukleofil reagent fenol, p-metoksifenol, o-, m-, p-krezollarni natriy metalli ta'sirida natriy fenolyatlar hosil qilindi. Ikkinchi bosqichda fenil-, o-, m- yoki p-tolilxlorasetatga natriy fenolyatlar ta'sir ettirib yangi moddalar sintez qilindi. Reaksiya quyidagicha bordi.



R¹=H-, o-, m-, p-CH₃ R=H; p-OCH₃; o-,m-, p-CH₃

Fenil-, o-, m- va p-tolilxlorasetatlar bilan fenol, 4-metoksifenol, 2-, 3- va 4-metilfenollarni nukleofil almashinish reaksiyalarini benzol, atseton, dioksan, DMF va DMSO erituvchilarda olib borildi. Tanlangan erituvchilardan DMF va DMSO lar bilan reaksiya olib borilganda hosil bo'lgan moddalar unumlarida yuqori bo'lishi kuzatildi (5-jadval).

5-Jadval

Fenil- o-, m-, p-tolilxlorasetatlar asosida sintez qilingan moddalarning unumlari

№	Modda nomi	Erituvchi-reaksiya unum %					R _f	T _{qayn.} °C/ T _{sim.} °C mm.sim.ust.
		Benzol	Aseton	Dioksan	DMF	DMSO		
1	Fenilfenoksiatsetat (21)	67	69	71	78	86	0,53	49-50
2	o-Tolilfenoksiatsetat(22)	66	67	69	76	82	0,50	210-215/12
3	m-Tolilfenoksiatsetat(23)	65	65	72	79	84	0,48	205-210/12
4	p-Tolilfenoksiatsetat(24)	58	61	65	75	78	0,45	106-108
5	Fenil-4-metoksifenoksiatsetat(25)	74	75	78	87	92	0,31	76-78
6	o-Tolil-4-metoksifenoksiatsetat(26)	71	73	74	83	86	0,28	108-110
7	m-Tolil-4-metoksifenoksiatsetat(27)	72	75	80	86	90	0,27	102-104
8	p-Tolil-4-metoksifenoksiatsetat(28)	68	73	76	84	88	0,470	105-106
9	Fenil-2-metilfenoksiatsetat(29)	79	81	83	92	94	0,468	82-84

10	Fenil-3-metilfenoksiatsetat(30)	72	74	76	79	85	0,447	86-88
11	Fenil-4-metilfenoksiatsetat(31)	84	87	90	94	97	0,423	92-94
12	o-Tolil-2-metilfenoksiatsetat(32)	74	77	80	85	89	0,381	205-210/16
13	o-Tolil-3-metilfenoksiatsetat(33)	68	72	74	77	83	0,378	215-220/16
14	o-Tolil-4-metilfenoksiatsetat(34)	81	84	87	91	93	0,368	90-92
15	m-Tolil-2-metilfenoksiatsetat(35)	75	78	80	89	91	0,310	210-215/18
16	m-Tolil-3-metilfenoksiatsetat(36)	69	72	73	78	83	0,283	210-215/17
17	m-Tolil-4-metilfenoksiatsetat(37)	80	83	88	90	95	0,275	70-72
18	p-Tolil-2-metilfenoksiatsetat(38)	72	76	79	86	90	0,268	110-112
19	p-Tolil-3-metilfenoksiatsetat(39)	67	69	70	78	81	0,212	92-94
20	p-Tolil-4-metilfenoksiatsetat(40)	77	79	86	89	93	0,191	97-99
21	Fenilpentaxlorfenoksiatsetat(41)	-	65	-	69	-	0,350	120-122
22	o-Tolilpentaxlorfenoksiatsetat(42)	-	60	-	69	-	0,350	127-128
23	m-Tolilpentaxlorfenoksiatsetat(43)	-	66		74	-	0,291	117-118
24	p-Tolilpentaxlorfenoksiatsetat(44)	-	64		71	-	0,289	137-138
25	Fenilbenzoiloksiatsetat(45)	-	-	63	74	-	0,466	60-61
26	o-Tolilbenzoiloksiatsetat(46)	-	-	58	70	-	0,450	58-59
27	m-Tolilbenzoiloksiatsetat(47)	-	-	70	74	-	0,434	98-100
28	p-Tolilbenzoiloksiatsetat(48)	-	-	61	68	-	0,416	94-95
Erituvchi-reaksiya unum								n_D^{20}
29	Feniletoksiatsetat(17)	Etil spirt			78	0,76	1.5210	
30	o- Toliletoksiatsetat(18)	Etil spirt			70	0,72	1.4895	
31	m- Toliletoksiatsetat(19)	Etil spirt			75	0,69	1.5032	
32	p- Toliletoksiatsetat(20)	Etil spirt			72	0,65	1.5060	

Sistema- Geksan-etilatsetat (8:2)

Faqat sistema- **Geksan-etilatsetat**-fenil-, o-, m-, p-tolilpentaxlorfenoksiatsetat (**6:4**), fenil-, o-, m-, p- tolilbenzoiloksiatsetat (**7:3**), fenil-, o-, m-, p-toliletoksiatsetat (9:1) tanlandi.

Fenil-, o-, m- va p-tolilxloratsetatlar bilan pentaxlorfenol bilan nukleofil almashinish reaksiyalarini atseton hamda DMF eritmasida olib borilib, 41,42,43,44 moddalar sintez qilindi. Nukleofil reagent sifatida natriy benzoat tanlanganda reaksiya dioksan DMF eritmasida borib, 45,46,47,48 moddalar hosil bo'ldi.

Nukleofil alashinish reaksiyasining borishga erituvchilarning ta'siri o'rganildi va ularning faollik qatori aniqlandi. U quyidagini tashkil etdi:

Benzol<atseton<dioksan<DMFA<DMSO

Ushbu faollik qatorning kelib chiqishiga sabab, birinchidan erituvchilarning dielektrik doimiylıklarining ta'siri bo'lsa, ikkinchidan ularning qaynash temperaturasidir.

Fenil- o-, m-, p-tolilxloratsetatlarni pentaxlorfenol bilan reaksiyasi atseton va DMF erituvchisida yaxshi borishi aniqlandi. Ammo reaksiya unumining kamayishi asoslandi. Buning sababi pentaxlorfenolning kislotali xossasi yuqori bo'lishi deb tushuntiriladi. Pentaxlorfenol molekulasida joylashgan xlorning kuchli -J>+M induksion effekti tufayli uning nukleofillik qobiliyatini susaytiradi va unumning pasayishiga olib keladi.

Fenil- o-, m-, p-tolilxloratsetatlarni natriy benzoat bilan reaksiyasi dioksan va DMF erituvchilarida o'tkazildi. Natriy benzoat bilan olib borilgan reaksiya

Yangi organik moddalarning g‘o‘zaning gommoz va ildiz chirish kasalliklariga ta’siri

№	Moddalarning nomi	Mikroorganizmlarning o‘shini to‘xtatish zonasi, % hisobida	
		X.malvasearum gommoz kasalligi (bakteritsidlik)	Th. Basicola qora ildiz chirish kasalligi (fungitsidlik)
1	Feniletoksiatsetat (17)	44,0	53,0
2	o-Toliletoksiatsetat(18)	38,0	62,0
3	m-Toliletoksiatsetat(19)	26,0	40,0
4	p-Toliletoksiatsetat(20)	24,0	35,0
5	Fenilbenzoioksiatsetat(45)	40,0	60,0
6	o-Tolilbenzoioksiatsetat(46)	37,0	58,0
7	m-Tolilbenzoioksiatsetat(47)	35,5	57,0
8	p-Tolilbenzoioksiatsetat(48)	30,0	50,0
9	Fenilfenoksiatsetat(21)	88,0	66,0
10	o-Tolilfenoksiatsetat(22)	44,0	50,0
11	m-Tolilfenoksiatsetat(23)	35,0	38,0
12	p-Tolilfenoksiatsetat(24)	33,0	36,0
13	Fenil-4-metoksifenoksiatsetat(25)	49,0	62,0
14	o-Tolil-4-metoksifenoksiatsetat(26)	56,0	68,0
15	m-Tolil-4-metoksifenoksiatsetat(27)	54,0	77,0
16	p-Tolil-4-metoksifenoksiatsetat(28)	53,0	68,0
17	Fenilpentaxlorfenoksiatsetat(41)	33,0	24,0
18	o-Tolilpentaxlorfenoksiatsetat(42)	38,0	33,0
19	m-Tolilpentaxlorfenoksiatsetat(43)	40,0	44,0
20	p-Tolilpentaxlorfenoksiatsetat(44)	36,0	39,0
21	o-Tolilxloratsetat(5)	40,0	48,0
22	m-Tolilxloratsetat(10)	44,0	51,0
23	p-Tolilxloratsetat(14)	38,0	42,0
24	m-Tolil-4-metilfenoksiatsetat(37)	59,0	66,0
25	Fenil-2-metilfenoksiatsetatlar(29)	63,0	72,0
26	Taqqoslovchi “fentiuram”	41,2	45,0

Shu munosabat bilan sintez qilingan moddalarning bakteritsidlik (X. malvasearum gommoz kasalligi) va fungitsidlik (Th.Basicola qora ildiz chirish kasalligi) xossasi tekshirilganda taqqoslovchi “Fentiuram”ga nisbatan yuqori faollikka ega bo‘lgan moddalar aniqlandi.

Yangi sintez qilingan moddalarni laboratoriyada sinash natijalari feniletoksiatsetat, fenilbenzoioksiatsetat, o-, m-, p-tolilbenzoioksiatsetatlar, fenilfenoksiatsetat, o-tolilfenoksiatsetat, fenil-4-metoksifenoksiatsetat, o-, m-, p-tolil-4-metoksifenoksiatsetatlar, o-, m-, p-tolilxloratsetatlarning fungitsid sifatida qo‘llanilgan “Fentiuram” bilan teng quvvatli yoki fungitsid faolligi undan bir oz yuqori ekanligi aniqlandi. Bakteritsid va fungitsid faolligi yuqori bo‘lgan preparatlardan biri fenilfenoksiatsetat laboratoriya hamda dala sharoitida sinab ko‘rildi va uni qishloq xo‘jaligida g‘o‘zaning gommoz kasalliklarini yo‘qotish uchun tavsiya qilindi ($L_{D50}=1530$ mg/kg). Bu preparatning g‘o‘za dalalarida

qo‘llanish formasi va Navoiy “Elektroximzavod” ma‘muriyati tasdiqlagan texnologik reglamenti ishlab chiqildi.

G‘o‘za ekishda 1 t chigit 1 kg fenilfenoksiatsetat bilan ishlov berilganda g‘o‘zaning gommoz va ildiz chirish kasalligining mikroblarini 88 % gacha yo‘qotadi, shuningdek, u o‘simlik o‘shishiga ijobiy ta‘sir qiladi.

Olingan moddalarning xossalarini Gaussian 09 W dasturi yordamida nazariy o‘rganildi. Xanthomonas citri pv. malvacearum tegishli 8ODS oqsili pdb.com sayti orqali ma‘lumotlar bazasidan yuklab olindi va AutoDock Tools dasturi yordamida qo‘shimcha birikmalardan tozalanib, vodorod atomlari va Kollman zaryadlari qo‘yildi. Faol markaz atrofidagi ta‘sirlashish maydoni AutoGrid bo‘limida $98 \times 118 \times 116 (A^3)$ o‘lchamida belgilandi. Ligandlar sifatida fenilfenoksiatsetat, fenilpentaxlorfenoksiatsetat, fenilxloratsetat, para-tolilxloroatsetat, para-tolil-4-metoksifenoksiatsetat, para-tolilpentaxlorfenoksiatsetat, fenil-4-metoksifenoksiatsetat, para-tolilfenoksiatsetat, para-toliletoksiatsetatlar tanlab olindi va ularni Avogadro dasturida chizib PDB formatda saqlab olindi. Ligand va oqsil o‘rtasidagi bog‘lanish energiyalarini AutoDock 4.2 dasturida o‘rganildi.

Olingan natijalardan ko‘rindiki, fenilfenoksiatsetatni molekulyar doking qilinganda dori-darmonlar olishda ishlatish mumkin bo‘ladi.

Ushbu jarayonda bog‘lanish energiyasi asosiy vazifani bajaradi. Bog‘lanish energiyasi ($\Delta G_{\text{binding}}$) - ligand va retseptor o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir kuchini aniqlash uchun ishlatiladigan molekulyar dokingning asosiy parametrlari berilgan.


7-Jadval

Molekulyar doking natijasida olingan komplekslarda ligand molekularining oqsil aminokislotalari qoldiqlari bilan (H-bog‘, VdV va b. bo‘yicha) ta‘sirlashishi

Fenilfenoksiatsetat	Bog‘lanishda ishtirok etgan faol aminokislotalar
	ASN222, THR297, TRP325, LEU223, THR297, GLU352, TYR296, TRP399

Bu ligand reseptorlari bilan bog‘langanda sodir bo‘ladigan energiyaning o‘zgarishini ifodalaydi, odatda, har bir mol uchun kilokaloriya birliklarida (kcal/mol) yoki kilojoullarda (kJ/mol) ifodalanadi.

Fenilfenoksiatsetatning oqsil kompleksida oqsil aminokislotalari qoldiqlari bilan bog‘lanishi quyidagicha bo‘lishi aniqlandi.



3-rasm. Oqsil kompleksida fenilfenoksiatsetatning oqsil aminokislotalari qoldiqlari bilan bog‘lanishi

Autodok dasturi natijasiga ko‘ra, olingan ligandlar orasida Fenilfenoksiatsetat, para-tolil-4-metilfenoksiatsetat, Fenil-4-metoksi fenoksiatsetat

va p-tolilfenoksiatsetatlar bakteriya oqsilidagi faol aminokislotalar bilan vodorod bog‘lanishda ishtirok etganligi aniqlandi (8-jadval).

8-Jadval





Ligandlar va oqsil o‘rtasidagi bog‘lanish energiyalari ($\Delta G_{\text{binding}}$, kkal/mol)





№	Fenil fenoksiatsetat	Fenilpentalorfenoksiatsetat	Fenilxloratsetat	o-tolilbenzoiloksiatsetat	p-tolil-4-metilfenoksiatsetat	p-tolilpentalorfenoksiatsetat	Fenil-4-metoksi fenoksiatsetat	p-tolilfenoksiatsetat	o-tolilfenoksiatsetat
1	-8.16	-6.33	-5.19	-4.84	-7.68	-6.34	-7.44	-6.64	-5.13
2	-8.13	-6.33	-4.83	-4.69	-7.42	-6.79	-7.23	-6.59	-5.12
3	-8.05	-6.87	-4.73	-4.69	-7.82	-6.60	-7.04	-6.40	-4.90
4	-7.98	-6.65	-4.57	-4.59	-7.78	-6.25	-6.73	-6.38	-4.70
5	-7.29	-6.46	-4.29	-4.56	-7.29	-6.17	-6.51	-6.17	-4.64
6	-7.14	-6.28	-4.90	-4.42	-7.19	-6.04	-6.11	-5.94	-4.65
7	-6.77	-6.16	-4.52	-4.50	-6.70	-5.27	-5.78	-5.99	-4.61
8	-6.62	-5.52	-4.48	-4.42	-6.11	-5.20	-5.76	-5.67	-4.48
9	-6.45	-5.41	-4.33	-4.17	-6.02	-5.26	-5.47	-4.83	-4.41
10	-6.14	-4.98	-4.29	-3.70	-5.79	-4.79	-5.31	-4.47	-4.40

Fenil-, o-, m-, p- tolilxloratsetatlarning bog‘ uzunliklari va zaryad qiymatlarini hisoblab topildi. Bog‘ uzunligi bog‘lanish kuchi bilan bog‘liqligi, qisqaroq bog‘lanish uzunligi odatda kuchliroq bog‘larni ko‘rsatadi. Uzunroq bog‘lanish uzunligi esa zaifroq bog‘larni anglatadi. Bog‘lanish kuchlarini bilish molekullarning barqarorligini va ularning kimyoviy reaksiyalarga moyilligini bilishda juda muhim bo‘ldi.

9-Jadval

Fenil-, o-, m-, p-tolilxlorasetatlarning bog‘ uzunliklari va zaryad taqsimotlari

№	Molekula	Bog‘ uzunligi	Zaryad taqsimoti
1	Fenilxloratsetat		
2	m-Tolilxloratsetat		


3	o-Tolilxloratsetat		
4	p-Tolilxloratsetat		

Fenil-, o-, m-, p- tolilxloratsetatlarning nukleofil almashinish reaksiyalarida bog‘ uzunligi va zaryad taqsimoti tahlillariga ko‘ra, hosil bo‘lgan mahsulot unumiga nisbatan xulosalar chiqarildi, ya’ni fenil-, o-, m-, p- tolilxloratsetatlarning faollik qatori quyidagicha bo‘ldi:

p-tolilxloratsetat < o-tolilxloratsetat < m-tolilxloratsetat < fenilxloratsetat.

Sintez qilingan moddalar kimyoviy korroziyaga qarshi sinab ko‘rildi. Ingibitorlarsiz bu agressiv ionlar metall sirtini yanada polarizatsiya qiladi, E_{corr} 0.60 V ni tashkil qiladi, buning natijasida St.20 po‘latidan tayyorlangan ishchi elektrod buziladi va uning yuzasida ko‘plab korroziya konlari hosil bo‘ladi.

Ushbu ta’sir po‘lat yuzasini to’sib qo‘yadigan va korroziyani yo‘q qilish tezligini sekinlashtiradigan o-tolilfenoksiatsetat (o-TFA) va p-tolilbenzoioksiatsetat (p-TBOA) tomonidan po‘latda yupqa himoya plyonka hosil bo‘lishi bilan izohlanadi. Korroziya potensialining o‘zgarishi bilan bir vaqtda korroziya oqimining pasayishi kuzatiladi, bu ingibitorlarning aralash ta’sir mexanizmidan dalolat beradi (4-rasm).



4-rasm. Fon-1 bilan fon eritmasida po‘lat elektrodning polarizatsiya egri chiziqchilari turli ingibitorlar (o-TFA) va (p-TBOA)


Ko‘rsatilgandek, Tafel egri chiziqchilari (4-rasm) ingibitorlar mavjud bo‘lmaganda ko‘proq salbiy va past korroziya oqimi hududlarida joylashgan bo‘lib, bu Fon-1 (3 % H₂SO₄+5 % Na₂SO₄) eritmasida ingibitorlar ishtirokida korroziya

kamayishi mumkinligini tasdiqladi. Eritma konsentratsiyasi 30 mg/l bo'lganda sintez qilingan o-tolilfenoksiatsetat va p-tolilbenzoiloksiatsetatlarni St.20 po'lat uskunalarini himoyalashi $Ph=5,5$ kislotali muhitda tekshirildi hamda eng yaxshi natijalar (94-96 % gacha) olindi. Ingibitorlarsiz bu agressiv ionlar metall sirtini yanada polarizatsiya qiladi; E_{corr} . 0.60 V ni tashkil qiladi, buning natijasida St.20 po'latidan tayyorlangan ishchi elektrod buziladi va uning yuzasida ko'plab korroziya konlari hosil bo'ladi.


Sintez qilingan moddalarning Muborak gazni qayta ishlash zavodining Texnik nazorat (TN) bo'limi tarkibidagi Elektrokimyoviy laboratoriya (EKL)si sharoitida St.3 markali po'latdan tayyorlangan namunalarda, 40-80 °C harorat oralig'ida biokorroziyadan himoyalovchi ingibitor sifatida sinovlardan o'tkazildi. O'tkazilgan korrozion sinovlar amalga oshirildi.

Fenil-, o-, m-, p-tolilxloratsetat asosida sintez qilingan moddalarning pseudomonas aeroginoza, desulfovibrio vulgaris, desulfovibrio sp. larga bakteriyalariga nisbatan sinab ko'rildi. Sinovlar natijalariga ko'ra, sintez qilingan moddalar metall biokorroziyasini ingibitorlovchi xossaga ega ekanligi aniqlandi. o-Tolil-4-metoksifenoksiatsetatlar, fenil-4-metoksifenoksiatsetat, m-tolil-4-metilfenoksiatsetat, fenil-2-metilfenoksiatsetatlar nisbatan effektiv ingibitor ekanligi aniqlandi. Tadqiq qilingan moddalarning metall konstruksiyalar va qurilmalar biokorroziyasining oldini olish hamda ekspluatatsion xossalarini yaxshilashi aniqlandi.


Fenilfenoksiatsetat sintez qilishning ikki bosqichli usuli ishlab chiqildi. Birinchi bosqichda fenolni xloratsetillash reaksiyasini absolyut benzol eritmasida olib borilganda faqat O-asillash reaksiyasi borib, fenilxloratsetat unum bilan hosil bo'ladi. Fenilxloratsetat hosil bo'lish sxemasini quyidagicha tasvirlash mumkin.



Ikkinchi bosqichda absolyut benzol eritmasida fenol bilan natriy metalli ta'siridan natriy fenolyat olinib, uning fenilxloratsetat bilan nukleofil almashinish reaksiyasi amalga oshirildi.



Yuqoridagi reaksiya reaksiya asosida fenilfenoksiatsetat ishlab chiqarishning ikki bosqichli texnologik sxemasi ishlab chiqildi va tavsiflandi.



5-rasm. Fenilfenoksiatsetat ishlab chiqarishning ikki bosqichli texnologik sxemasi


